

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

**OLIV VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

Ikromova Sevaraning

**5A120302 - Tarix (Yevropa va Osiyo mamlakatlari bo‘yicha) ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha magistr darajasini olish uchun**

**“MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VA MALAYZIYA DAVLATI O‘RTASIDA IQTISODIY VA
MADANIY SOHALARDAGI HAMKORLIK”**

mavzusida yozgan

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Ilmiy rahbar: prof. A.Choriyev

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix va ijtimoiy fanlar

fakulteti dekani _____ F.Raxmonov

“ _____ ” _____ 2015 yil

Qarshi shahri 2015 yil

Mundarija

Kirish_____4

I Bob. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi

1.1. O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari aloqalari tarixi, tarixshunosligi_____11

1.2. O‘zbekiston va Malayziya davlati o‘rtasida o‘zaro foydali munosabatlar va hamkorlik o‘rnatish asoslarining yaratilishi_____34

II-Bob. O‘zbekiston-Malayziya munosabatlarining shakllanishi va iqtisodiy sohadagi hamkorligi

2.1. O‘zbekiston va Malayziya davlatlarining keng qamrovli va o‘zaro manfaatli iqtisodiy aloqalari_____40

2.2. O‘zbekiston va Malayziya davlatlari o‘rtasidagi madaniy hamkorlik_____46

III Xulosa_____52

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ilova

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqilligining e‘lon qilinganligi o‘zbek xalqi va davlatchiligining ko‘p asrlik tarixida muhim voqea bo‘ldi. Aynan mustaqillik tufayli O‘zbekiston tarixida yangi sahifa ochildi. Erishilgan milliy mustaqillik O‘zbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy sohalarda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni mantiqiy ravishda kun tartibiga qo‘ydi.

“Biz, – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov, – o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz”¹.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, suveren davlat sifatida mamlakatning ichki hayotiga oid masalalar bilan bir qatorda, tashqi siyosat yo‘nalishiga doir vazifalarni bajarishga kirishdi.

O‘zbekiston rahbariyati mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatiga e‘tibor qaratar ekan, birinchi navbatda uning strategiyasi, tamoyillari va

¹ Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – B. 3.

ustuvor yoʻnalishlarini belgilab oldi. Shu asosda Oʻzbekiston Respublikasi qisqa muddat ichida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining shakllanish jarayoniga toʻla huquqli aʼzo sifatida qoʻshildi va jahon hamjamiyatining integratsiyalashuviga yuz tutdi.

Mamlakat tashqi siyosiy faoliyati strategiyasidan kelib chiqqan holda Oʻzbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik oʻrnatilishi va rivojlantirilishining faol tarafdori boʻlib qolmoqda. Bu nafaqat davlatlar oʻrtasida teng huquqlilik asosidagi munosabatlarning shakllanishiga, balki xalqlar oʻrtasida doʻstlik, hamkorlik va oʻzaro ishonchning mustahkamlanishiga ham hissasini qoʻshmoqda. Shu sabablarga koʻra nisbatan yosh boʻlgan mustaqil Oʻzbekiston davlatining tashqi siyosiy faoliyatini ilmiy nuqtai nazardan oʻrganish bugungi dolzarb masalalardan biridir. Aynan bu gʻoya mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan, respublikadagi yetuk tarixchi olimlar bilan 1998 yil iyun oyida boʻlib oʻtgan uchrashuv chogʻida ilgari surilgan edi. Shuningdek, ushbu gʻoya Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorida oʻz aksini topdi.

Shunday ekan, Oʻzbekiston Respublikasining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi teng huquqli aloqalarini oʻrganish, bugungi kunda tarix fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri boʻlib hisoblanmoqda. Shu asosda taʼkidlash joizki, bugungi kunda Oʻzbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan teng huquqli va oʻzaro manfaatli hamkorlik aloqalarini oʻrganish, ilmiy tadqiqot obyekti sifatida alohida oʻringa ega. Bu mintaqa hozirgi dunyo geostrategiyasida

o'z mavqeiga ega bo'lib, bir qator yangi, sanoati jihatdan rivojlanayotgan davlatlarni o'z ichiga olgan.

Janubi-Sharqiy Osiyoning shitob bilan rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri Malayziya bo'lib, ulkan iqtisodiy imkoniyatlarga egadir. Bu mamlakat o'z tashqi siyosat yo'lida tinchlik va xavfsizlik manfaatlarini himoya qilib, dunyo hamjamiyati mamlakatlari bilan o'zaro foydali va teng huquqli munosabatlar o'rnatmoqda. Malayziya tashqi siyosatidagi bunday yondashuvlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarga bo'lgan qarashlariga to'liq mos kelishi ikki davlat o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarning rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan barcha mamlakatlar, jumladan Malayziya bilan yo'lga qo'yilgan ko'p qirrali munosabatlari bugunga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'z ifodasini topgani yo'q. Shunga ko'ra, O'zbekiston va Malayziya davlatlari o'rtasidagi aloqalarning ilmiy asoslangan holda tahlil etilishi, tarix fanining xalqaro munosabatlar yo'nalishidagi bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi aynan shu bilan ham bog'liq.

Tadqiqotning davriy chegarasi 1991–2010 yillarni qamrab oladi. Bu mustaqil O'zbekistonning tashkil topish va rivojlanish davridir. Bu yillarda mamlakatning o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishi, xalqaro maydonga yuz tutishi, tashqi siyosat strategiyasi va tamoyillarining shakllanishi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda O'zbekiston dunyo hamjamiyati mamlakatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga muvaffaq bo'ldi. O'zbekiston

Respublikasi va Malayziya o'rtasidagi hamkorlik ham shu davrda shakllandi va taraqqiy etdi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad arxiv hujjatlari va tarixiy dalillarga tayangan holda O'zbekiston Respublikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikni Malayziya davlati misolida ilmiy jihatdan obyektiv va xolisona yoritishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

– O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari tarixini yoritish;

– Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatida muhim yo'nalishlardan biri ekanligini asoslab berish;

– O'zbekiston va Malayziya munosabatlarida huquqiy asoslarning shakllanishini tahlil etish;

– O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish jarayonini ko'rsatish;

– xalq diplomatiyasi ko'p qirrali shakllarining davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda muhim omil ekanligini anglab yetish;

– O'zbekiston va Malayziya xalqlari o'rtasidagi ko'p qirrali madaniy hamkorlikning asosiy shakllarini yoritish;

– O'zbekiston Respublikasi va Malayziya o'rtasida ta'lim sohasidagi o'zaro manfaatli aloqalarning holatini ko'rib chiqish;

– O‘zbekiston va Malayziya davlatlarining o‘zaro manfaatli hamkorligini tahlil qilish asosida tegishli xulosalar chiqarish va kelgusi aloqalarni yanada jadallashtirishga qaratilgan tavsiyalar berish.

Magistrlik dissertasiyasining ilmiy yangiligi. Ishda O‘zbekiston Respublikasi va Malayziya davlatlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikning o‘rnatilish va rivojlanish jarayonlari ilk bor kompleks ilmiy tahlil qilingan.

Shuningdek, mavzuning ilmiy yangiligi quyidagi asosiy omillar bilan ham belgilanadi:

– O‘zbekiston Respublikasining o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan va milliy istiqlol mafkurasiga tayangan holda xalqaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi hamda xalqaro munosabatlarning yangi tizimini shakllantirish jarayonlarida bevosita ishtirok etishi O‘zbekiston-Malayziya misolida yangi dalillar asosida ifodalab berildi;

– O‘zbekiston va Malayziya davlatlari o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik aloqalarining ilmiy jihatdan yoritilishi mamlakatimiz tarixshunosligidagi xalqaro munosabatlarga bag‘ishlangan yo‘nalishning yangi tadqiqot bilan boyitilishiga asos bo‘ldi;

– O‘zbekiston va Malayziya davlatlarining tashqi siyosatida jahonda ro‘y berayotgan jarayonlarga bo‘lgan qarashlaridagi o‘xshashlik jabhalari, ikki mamlakatning o‘zaro teng huquqli aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirishdan manfaatdorligi aniqlandi;

– O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasida iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlik jarayonini o‘rganish va tahlil qilish, ikki mamlakat taraqqiyotiga qo‘shayotgan samarali natijalar bilan bir

qatorida, mavjud ayrim kamchiliklarni aniqlashga va takliflar kiritishga imkon yaratdi;

– ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini to‘liq va asosli yoritib berishda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxivi fondlari, turli vazirlik va muassasalari, Malayziyaning Toshkentdagi elchixonasi, firma va kompaniyalari, “O‘zbekiston va Malayziya” do‘stlik jamiyati kabi tashkilotlar joriy arxividan olingan ma’lumotlardan keng foydalanildi va ular ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Magistrlik dissertasiyasining ilmiy va amaliy ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati davlatlari bilan xalqaro hamkorligi masalalarini ilmiy yondashuv asosida o‘rganish ishning muhim jihatidan biridir.

Tadqiqotda ilgari surilgan asosiy qoida, nazariy xulosa va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati va jahon hamjamiyati bilan yanada integratsiyalashuviga oid istiqbolli dasturlarini ishlab chiqishda, respublikaning tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatini olib boruvchi davlat muassasalariga nazariy va amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan va nazariy jihatdan umumlashtirilgan ma’lumotlardan mamlakatimizning eng yangi tarixini yozish, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro hamkorligi masalalariga oid monografiyalar tayyorlashda, shuningdek, respublikamiz oliy ta’lim tizimining bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” fanlaridan ma’ruzalar hamda maxsus kurs darslarini o‘tishda foydalanish mumkin.

Ishning aprobatsiyasi. Ushbu mavzu Qarshi davlat universiteti tarix fakulteti “Tarix” kafedrasida qoshidagi “Yosh oʻlkashunoslar” toʻgaragida maʼruza qilindi va kafedra yigʻilishlarida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Magistrlik dissertasiyasining tuzilishi va hajmi. MD kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati hamda ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 63 betni tashkil etadi.

I Bob. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi

1.1 O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari aloqalari tarixi tarixshunosligi

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida uning jahon hamjamiyatiga kirish, xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik masalalariga oid ko‘plab ilmiy asarlar tahlil qilindi. Ular uch guruhga bo‘lib o‘rganildi:

- 1) O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda e‘lon qilingan monografiya, ilmiy maqola va tadqiqotlar;
- 2) MDH mamlakatlari tadqiqotchilarining ilmiy ishlari;
- 3) uzoq xorijlik mualliflar tomonidan nashr etilgan tadqiqotlar.

Ilmiy adabiyotlarning birinchi guruhiga O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda e‘lon qilingan monografiyalar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar kiritildi. Bu adabiyotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, mualliflar milliy mustaqillik mafkurasiga tayangan holda mavjud muammolarni yoritishda eski aqidalarga emas, balki sifat jihatdan mutlaqo yangi konseptual-metodologik tamoyillarga tayanib ish ko‘rganlar. Ular o‘z asarlarida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati asoslarining

shakllanishi va xalqaro maydonga chiqishi, xorijiy davlatlar bilan har tomonlama aloqalari, shuningdek, dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi kabi qator masalalarni ilmiy tahlil qilganlar.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlar sifatida A.Qosimov, L.Petrov va I.Vaskin² kabi mualliflarning ishlarini qayd etib o‘tish joiz. Bu mualliflar O‘zbekistonning mustaqil davlat va jahon hamjamiyatining to‘la huquqli a‘zosi sifatida o‘z tashqi siyosiy faoliyatini shakllantirganini hamda rivojlanishini yoritib berishga harakat qilganlar. A.Qosimov va I.Vaskinning rus tilida e‘lon qilingan kitobida mualliflar O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va yo‘nalishlarni bayon etganlar, mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalaridagi asosiy xususiyatlarni ochib berishga e‘tiborni qaratishgan.

Ayrim mualliflar o‘z asarlarida global iqtisodiy aloqalar rivojlantirishidagi asosiy tendensiyalar va ularning O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga ta‘sirini ilmiy jihatdan yoritganlar. Shuningdek, O‘zbekistonning yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi tarixiga ham e‘tibor qaratilgan³. Xususan, A.Alimov, A.Akilov, A.Bedrinsev,

² Kasimov A., Petrova L. Vneshnyaya politika Uzbekistana v svete koncepsii nenasiliya. – T., 1992; Kassimov A., Vaskin I. Osnovniye napravleniya vneshney politiki Respubliki Uzbekistan. – T.: Uzbekistan, 1994.

Alimov A. Vneshneekonomicheskaya deyatel'nost' Respubliki Uzbekistan: vzglyad v budusheye. – T.: Uzbekistan, 1992; O‘sha muallif. Otsenka itogov i xoda ekonomicheskix reform vo vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti za 1995 god // Ekonomika i statistika. – 1996. – № 3–4. – S. 34–43; O‘sha muallif. O‘zbekistonda tashqi savdo // Iqtisod va hisobot. – 1997. – № 7. – B. 42–44; Ziyadullayev S. K. Prognozirovaniye ekonomicheskogo razvitiya Uzbekistana v usloviyax perexoda k rinochnoy ekonomike. – T.: Uzbekistan, 1993; Tursunmuxamedov I. G. Sovmestniye predpriyatiya i problemi ix razvitiya // Obshestvenniye nauki v Uzbekistane. – 1993. – № 11–12. – S. 22–26; Raxmonkulov M. X., Ubaydullayev Z. S. Formirovaniye sistemi pravovogo regulirovaniya vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti Uzbekistana // Obshestvenniye nauki v Uzbekistane. – 1994. – № 9–10. – S. 3–7; Salixov S. S. Viyti na vneshniy rinoch // Ekonomika i statistika. – 1995. – № 5–6. – S. 10–19; Karimova G. I. Politiko-ekonomicheskkiye reformi v Uzbekistane: realii i perspektivi. – T.: Uzbekiston, 1995; O‘sha muallif.

S.X.Ziyadullayev, A.Rasulov, Z.Boboxo‘jayev va boshqalar milliy tashqi-iqtisodiy doktrinamizning vazifalari va ustuvor yo‘nalishlarini tavsiflab, uning hayotga tatbiq etilishi va kelajakdagi istiqbollarini ko‘rsatib o‘tganlar. B.Tojixonov va G.I.Karimova O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvining siyosiy-iqtisodiy jihatlarini tahlil etganlar. M.X.Rahmonkulov va Z.S.Ubaydullayev respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini huquqiy yo‘naltirish tizimini shakllantirishdagi tajribani umumlashtirganlar. S.S.Salihov O‘zbekistonning jahon bozorlariga chiqishi muammolarini yoritishga harakat qilgan. S.Usmonov bozor munosabatlariga o‘tishning milliy modelini hayotga tatbiq etishda xalqaro iqtisodiy hamkorlikning rolini ko‘rsatib o‘tgan. I.G.Tursunmuhamedov o‘z tadqiqotlarini qo‘shma korxonalarining tashkil etilishi, ularni rivojlantirishda uchrayotgan obyektiv va subyektiv qiyinchiliklarni tahlil etishga bag‘ishlagan.

Shu bilan birga, respublikaning xalqaro hamjamiyat qatoridan joy olishi masalalari ham huquqiy nuqtai nazardan katta qiziqish uyg‘otadi. Jumladan, R.Hakimovning asarlari⁴ O‘zbekiston mustaqilligi tan olinishining xalqaro-huquqiy jihatlariga qaratilgan. Muallif ularda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqning teng huquqiy a‘zosi sifatida tadrijiy taraqqiy etishi va shakllanishi masalalarini BMT kabi xalqaro tashkilotning faoliyati bilan bog‘liq holda yoritib bergan.

Globalizatsiya mirovoy ekonomiki i osnovniye voprosi postepennogo vxojdeniya Uzbekistana v danniy protsess // *Ekonomika i statistika*. – 1996. – № 6. – S. 35-37; Rasulov A., Bedrinsev A., Akilov A. *Uzbekistan: vneshne-ekonomicheskaya deyatelnost i integratsiya v mirovoye xozyaystvo*. – T.: Uzbekiston, 1996; Rasulov A. *Eksportnaya strategiya natsionalnoy ekonomiki*. – T.: Fan, 1996; O‘sha muallif. *Vneshneekonomicheskaya strategiya Uzbekistana // Obshestvo i ekonomika*. – 1998. – №3. – S. 158; Tadjixanov B. *Vxojdeniye v mirovoye soobshestvo // Ekonomika i statistika*. – 1997. – № 7. – S. 18–19; Usmanov S. *Prakticheskoye osushestvleniye sobstvennoy modeli perexoda k rinochnim otnosheniyam v Uzbekistane // Ekonomika i statistika*. – 1997. – № 7–8; Boboxodjayev Z. *Suverenniy Uzbekistan. Voprosi vnutrenney i vneshneekonomicheskoy politiki*. – T.: 2005.

⁴ Xakimov R. *Uzbekistan i Organizatsiya Obyedinennix Natsiy*. – T.: O‘zbekiston, 1995; O‘sha muallif. *Mejdunarodno-pravoviye voprosi priznaniya i pravopreyemstva Respubliki Uzbekistan*. – T.: Uzbekiston, 1996.

O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatidagi tajribaning ortib borishi, jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi jarayoni Respublikaning xalqaro aloqalarini yanada chuqurroq ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlar yuzasidan faoliyat ko‘rsatayotgan tadqiqotchilar uchun E.Z.Nuriddinovning ilmiy ishlari⁵ alohida e’tiborga loyiq. Ularda mamlakatimizning tashqi siyosiy faoliyati, dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi, mintaqaviy va global xavfsizligining ta’minlanishi hujjatlar va manbalar asosida tahlil etilgan.

Ushbu tadqiqotni yoritishda A.K.Qirg‘izboyevning asarlari□ alohida ahamiyat kasb etadi. Ular asosan O‘zbekiston Respublikasining Osiyo qit’asidagi mamlakatlar bilan aloqalari va ularning rivojlanishiga bag‘ishlangan. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” nomli monografiyasida muallif xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning tarixiy ildizlarini, Mustaqil O‘zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarining hozirgi holati hamda istiqbollarini batafsil ilmiy tahlil etgan. Lekin ushbu monografiyada faqat O‘zbekistonning Osiyo qit’asidagi ayrim yirik davlatlar bilan o‘zaro foydali va teng huquqli aloqalarining shakllanishi va rivojlanishigina ko‘rib chiqilgan. Asarda O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi davlatlar bilan olib borayotgan serqirra hamkorligi masalalariga alohida e’tibor berilmagan.

⁵ Nuriddinov E. Z. O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati: asoslari va ustuvor yo‘nalishlari // O‘zbekiston tarixi. – 2000. – №4. – B. 27–37; O‘sha muallif. Mejdunarodnoye sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropi. – T.: Chulpon, 2002; O‘sha muallif. Tashqi iqtisodiy faoliyatning g‘oyaviy asoslari // Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining g‘oyaviy asoslari. – T., 2001. – B. 128–149. O‘sha muallif. Stanovleniye i prioritetniye napravleniya vneshney politiki Respubliki Uzbekistan // O‘zbekiston tarixi. – 2002. – №4. – B. 3–11; va boshq.

Tadqiqot jarayonida Ch.Ko‘charovning monografiyasiga ⁶ ham e‘tiborni qaratdik. Ushbu asarda Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsiya jarayoni muammolari haqida so‘z boradi. Monografiyada Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya jarayoni, uning geosiyosiy holati va mintaqadagi muammolar yechimi tahlil etilgan. Shuningdek, asarda Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasining jahon hamjamiyatiga mushtarakligi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Shuni ta‘kidlab, o‘tish joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixi fanida respublikamizning alohida xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan⁷.

Yuqorida qayd etilgan monografiyalar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar muhim tahliliy materiallarga boy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilishga yordam beradi, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati va xalqaro hamkorligining hozirgacha ochib berilmagan yangi

⁶ Ko‘charov CH. Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsion jarayoni muammolari (geosiyosiy tahlil tajribasi). – T.: Fan, 2007.

⁷ Kirgizboyev A. K. Mejdunarodnoye sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Azii: Avtoref. dis. ... d-ra ist. nauk. – T., 2004; Kucharov CH. Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsion jarayoni muammolari: Siyosiy fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2008. – 46 s.; Nuriddinov E. Z. Mejdunarodnoye sotrudnichestvo Uzbekistana so stranami Yevropi v usloviyax nezavisimosti: stanovleniye, razvitiye, problemi: Avtoref. dis. ... d-ra ist. nauk. – T., 2000; Kucharov CH. Ekonomicheskiye svyazi Respubliki Uzbekistan so stranami Azii (1985–1995 gg): Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – T., 1997. – 27 s.; Sharapova S. SH. Osnovniye problemi stanovleniya i razvitiya vneshney politiki Respubliki Uzbekistan: Avtoref. dis. ... kand. polit. nauk. – T., 1997. – 27s.; Jo‘rayev R. T. Rol narodnoy diplomatii Uzbekistana v mejdunarodnix otnosheniyax: Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – T., 1999. – 26 s.; Sun Don Gi. O‘zbekiston va Janubiy Koreya munosabatlarini iqtisodiy, madaniy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi va istiqbollari: Tarix fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 2000. – 30 b.; Bekmuratov X. I. O‘zbekistonning Turkiya bilan iqtisodiy va madaniy hamkorligi (1991–2000 yy.) : Tarix fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 2001. – 26 b.; Ziyamov N. Rol Uzbekistana v razvitiij mejjosudarstvennogo ekonomicheskogo i kulturnogo sotrudnichestva stran Sentralniy Azii (1991–2001 gg.): Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – T., 2002. – 26 s.; Saidazimova G. S. Integratsiya kak globalniy protsess i yeyo znachenije dlya gosudarstv Sentralnoy Azii (na primere Yugo-Vostochnoy Azii): Dis. ... kand. polit. nauk. – T., 2001. – 189 s.; Kurbanov D. D. Privlecheniye pryamix inostrannix investitsiy v Kitayskuyu Narodnuyu Respubliku: opit i vozmojnosti rasshireniya uzbeksko-kitayskogo sotrudnichestva: Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – T., 2002. – 22 c.; Asadova R. B. Sotrudnichestvo mejdu Uzbekistanom i Indiyey v oblasti ekonomiki i kulturi: istoricheskiye osnovi i sovremennoye sostoyaniye (1991–2001 gg.): Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. – T., 2007. – 29 s.; Atadjanova S. M. Nauchno-technicheskoye i kulturnoye sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan s Kazaxstanom i Kirgizstanom (1991–2001gg). – T., 2009. – 30 s.

yoʻnalishlarini tadqiq etishda nazariy va metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Biroq, yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarning qimmatini zarracha kamsitmagan holda, shuni qayd etish joizki, ularda Oʻzbekiston Respublikasining Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridan biri Malayziya bilan keng qamrovli hamkorligi masalasi yoritib berilmagan.

Ilmiy adabiyotlarning ikkinchi guruhiga MDH mamlakatlari tadqiqotchilarining ilmiy ishlari kiritildi. Ularda xalqaro munosabatlarda roʻy berayotgan oʻzgarishlar, yangi jahon tartibotining shakllanishi, davlatlararo munosabatlardagi asosiy tendensiyalar va ularning muayyan davlat ichki ahvoli hamda taraqqiyotiga koʻrsatadigan taʼsiri kabi masalalar boʻyicha eʼtiborga molik ilmiy mulohazalar uchraydi.

Rossiyalik olimlar qalamiga mansub koʻplab ilmiy adabiyotlar orasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarning muammolari, xalqaro jarayonlarda ularning mustaqil ishtiroki masalalariga bagʻishlangan tadqiqotlar diqqatni jalb etadi. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining bir guruh olimlari tomonidan tayyorlangan maxsus monografiya□ bu borada katta qiziqish uygʻotadi. Asarda Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining oʻz mustaqil taraqqiyot yoʻllarini tanlab olishlari, ularda amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar koʻrib chiqilgan, mintaqadagi har bir davlat tashqi siyosatidagi asosiy tendensiyalar ochib berilgan, Markaziy Osiyo mintaqasida Oʻzbekistonning geosiyosiy mavqei alohida ajratib koʻrsatilgan.

S.Jukov, R.Reznikova, L.Vinogradova va V.Kolesnikovlarning⁸ ilmiy maqolalari ham diqqatni o‘ziga jalb etadi. Ularda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo va MDH doirasidagi integratsiya jarayonlaridagi yetakchilik rolga alohida urg‘u berilgan. Jumladan, mintaqaning dunyo hamjamiyatini o‘ziga jalb etuvchi siyosiy va iqtisodiy o‘ziga xosliklari ochib berilgan. Mualliflarning umumiy xulosalariga ko‘ra, xorijiy sarmoyalarning Markaziy Osiyo bozorlariga kirib kelishida hal qiluvchi asosiy mavqeni O‘zbekiston Respublikasi egallamoqda. Shu bilan birga, bu mualliflar taraqqiyotning o‘zbek modeliga, jahon hamjamiyati davlatlari bilan ko‘p tomonlama hamkorlik o‘rnatishda bu modelning ahamiyatiga yuksak baho berganlar.

Rossiyalik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida O‘zbekiston ichki va tashqi siyosati yutuqlarini, Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga islom omili ko‘rsatayotgan ta’sirni o‘rganish masalalariga katta qiziqish bilan qaralmoqda⁹. Jumladan, F.Burlatskiy o‘z maqolasida taraqqiyotning o‘zbek modeliga yuqori baho berib, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida erishayotgan yutuqlarini alohida qayd etgan. D.Trofimovning maqolasida islom omilining mintaqada barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni tadqiq etilib, Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekistondagi ichki siyosiy jarayonlar rivojiga islom dini ko‘rsatayotgan ta’sirning muhim jihatlari ochib berilgan.

⁸ Jukov S., Reznikova O. Sentralnaya Aziya v mirovoy politike i ekonomike // SSHA : EPI, –1994. – №12. – S. 82–85.; Vinogradova L. Ekonomicheskaya integratsiya v SNG i opit tretyego mira // Mirovaya ekonomika i mejdunarodniye otnosheniya. – 1995. – №9. – S. 22–28.; Jukov S. Kazaxstan, Kirgizstan, Uzbekistan v sotsialno-ekonomicheskix strukturax sovremennogo mira // Mirovaya ekonomika i mejdunarodniye otnosheniya. – 1997. – №3. – S. 45–60; Kolesnikov V. Uzbekskaya model razvitiya // Ekspert YevrAzii. – M., 2001. – S. 34–39.

⁹ Malashenko A. V. Islamskoye vozrojdeniye: uvidennoye, no nedootsenyonnoye // Aziya i Afrika segodnya. – 1995. – № 9. – S. 28–36; Ponomarev V. A. Islam v Uzbekistane. 1989–1995 gg. // Politicheskoye issledovaniya. – 1996. – №2. – S. 184–190; Trofimov D. Islamskiy faktor i problemi vnutrenney stabilnosti v Sentralnoy Azii // Byulleten RAN. IVAN. – 1997. – №1. – S. 65–71; Yevstafyev D. Islam v geopoliticheskom kontekste // Rossiya i musulmanskiy mir. – 1999. – №3. – S. 81–89; Burlatskiy F. Uzbekistan: 10 let nezavisimosti // Nezavisimaya gazeta. – 2001. – 11 sent.; va boshq.

Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya va xavfsizlikni ta'minlash masalalari ilmiy tadqiqotlarning yana bir alohida sohasini tashkil etadi. Masalan, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik tadqiqotlar institutining direktori G.Qurbonboyeva o'z maqolasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi alohida xususiyatlarni va asosiy tendensiyalarni tahlil etgan¹⁰.

Davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishda muhim omil sanaluvchi mintaqaviy xavfsizlik masalalari M.Arunova va V.Goryunkovning maqolalarida qalamga olingan¹¹. Mualliflar Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT)ning mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati, ushbu tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida ishonch va hamkorlikning mustahkamlanishdagi roliga e'tibor qaratishgan. Shuningdek, Yevrosiyo maydonida tashkil etilgan SHHT va Janubi-Sharqiy Osiyoda faoliyat yuritayotgan ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari hamkorligi) kabi xalqaro tashkilotlarni ularning maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan taqqoslaganlar.

Ilmiy tadqiqotlarni o'rganish jarayonida MDH mamlakatlarida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan ilmiy ishlar yaratilganini qayd etish lozim . Bu ishlar biz tanlagan tadqiqot mavzusi bilan yaqinligi bois ham nazariy, ham metodologik jihatdan qimmatlidir. Masalan, T.A.Tursunboyev o'z dissertatsiyasini Qozog'iston timsolida yangi mustaqil davlatning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiyot, xavfsizlik va

¹⁰ Kurbanbayeva G. Konseptualniye osnovi ekonomicheskoy integratsii stran Sentralnoy Azii // Sentralnaya Aziya i Kavkaz. – 2004. – №5. – S. 175–179.

¹¹ Arunova M., Goryunkov V. Shanxayskaya Organizatsiya Sotrudnichestva: kriterii analiza ustoychivosti i razvitiya // Sentralnaya Aziya i Kavkaz. – 2004. – № 6. – S. 141–145.

madaniyat borasidagi xalqaro aloqalari tahliliga bag'ishlagan. Ishda Qozog'iston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari hamda mamlakatning jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini topishda foydalanayotgan imkoniyatlari ochib berilgan.

Adabiyotlarning uchinchi guruhini xorijlik mualliflar tadqiqotlari tashkil etadi. Bunda dissertant globallashtirish jarayonlari, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari yoritilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratgan. Bunday adabiyotlar orasida jahon tartiboti konsepsiyasining metodologik asoslarini ishlab chiqqan Z.Bjezinskiy, G. Kissinjer va S.Xantington geosiyosat, geoiqtisodiyot va xalqaro munosabatlar masalalarini ilmiy jihatdan asoslab, mukammal o'rganishgan¹².

Mustaqil O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi rivojlanishi hamda xalqaro maydondagi ulkan imkoniyatlari haqida N.Lyubin, P.Goubl, D.Diker, E.Epostulu, B.Roberson asarlarida fikr-mulohazalar bildirilgan¹³.

Xitoy, Rossiya va AQShning Markaziy Osiyodagi manfaatlari va pozitsiyalarini o'rgangan xitoylik tadqiqotchi Chjao Xuashen Xitoyning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini belgilab beruvchi bir qator omillarni qayd etadi: "Birinchidan, Pekin Sharqiy Turkistondagi ayirmachi

¹² Qarang: Bjezinskiy Z. Vne kontrolya. Globalniy besporyadok nakanune XXI veka // SSHA – EPI. – 1994. – №4. – S. 121–122; O'sha muallif. Velikaya shaxmatnaya doska. Gospodstvo Ameriki i yego geostrategicheskiye imperativi. – M.: Mejdunar. Otnosheniya, 2000; Samuel P. Huntington. The Clash of Civilization? // Foreign Affairs. – Summer. – 1993. – R. 22–49; Kissinger H. Diplomasy. – N.-Y., 1994; O'sha muallif. Retsept xaosa // SSHA – EPI. – 1994. – № 1. – S. 77–79; O'sha muallif. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – N.-Y., 1996.

¹³ Qarang: Lubin N. Central Asia: Issues and challenges for United States policy. The new geopolitics of Central Asia and its borderlands. Ed. By Ali Banuazizi and Myran Weiner. J. 8. Touris and Co. Ltd. – I. W. Y., 1994; Goble P. A. The 50 million muslim misunderstanding; The West and Central Asia: Players in the new great game. Ed. By A. Ehteshami, University of Exeter Press, 1994; Dyker D. A. Investment direction in prospects of Uzbekistan // Central Asia Newsiife. Chapter 4, 8. August-September. 1996; Apostolu, Andrew M. The problems of creating Economies in Central Asia. From the gulf to Central Asia. Players in the new great game. Ed. By A. Ehteshami, University of Exeter Press, 1996; Roberson B. A. The Middle East and Europe. The Power deficit. Routledge. – London, 1998.

kuchlar tazyiqini kamaytirishga intilmoqda, ikkinchidan, XXR Markaziy Osiyo mintaqasi strategik jihatdan barqaror tayanch bo‘lishini, uchinchidan, mintaqa davlatlarini salohiyatli energiya manbalari yetkazib beruvchi, ayni paytda iqtisodiyotning boshqa sohalari bo‘yicha o‘zining sherigi deb biladi”¹⁴.

Tadqiqot jarayonida Malayziya davlatining tarixi, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda erishgan yutuqlari, Malayziya hukumatining xalqaro maydonda olib borayotgan siyosatiga doir adabiyotlar¹⁵ keng o‘rganildi. Malayziya Bosh vaziri Abdulla Ahmad Badaviyning “Islom hadari” konsepsiyasi ham diqqatga sazovor bo‘lib, bu asar O‘zbekistonda ham nashr etilgan¹⁶.

Shunday qilib, xorijlik mualliflar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar orqali xalqaro munosabatlarda ro‘y berayotgan asosiy jarayonlar, globallasuv sharoitlarida shakllanayotgan yangi jahon tartiboti va davlatlararo munosabatlar haqida umumiy tasavvur hosil bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik masalalariga oid mavzular nafaqat chet el balki O‘zbekiston tarixchilari va siyosatshunoslarining ham e‘tiborini tortmoqda.

Muammoning o‘rganilish darajasini tahlil qilish quyidagicha xulosaga asos bo‘lib xizmat qildi:

¹⁴ Qarang: Xuashen CH. Kitay, Rossiya, SSHA: interesi, pozitsii, vzaimootnosheniya v Sentralnoy Azii // Sentralnaya Aziya i Kavkaz. – 2004. – № 5. – S. 131–140.

¹⁵ Wanita dan Keluarga Ministry of Women and Family Development. Malaysia facts and picture 2005; Mohd. Ayop. Abd. Razid. Department Of information Malaysia -2005. Discovery. Oga. 2005; Malaysia Today towards the new Millennium. Dr Mahathir Mohamad Prim. Malaysian Industry 37 edition. Federation of Malaysian Manufactures-2006.

¹⁶ Qarang: “Islom xadari” konsepsiyasi (o‘zbek va ingliz tilida). – T.: O‘zbekiston, 2005. – 32 b.

Birinchidan. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarix fanida mamlakatimizning tashqi siyosati va xalqaro hamkorligi masalalarini o‘rganuvchi yangi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi shakllandi.

Ikkinchidan. O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi har bir davlat bilan ikki tomonlama hamkorligi masalalarini ilmiy o‘rganish jarayonlari kuchaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi bilan Malayziya o‘rtasidagi xalqaro hamkorlikni yoritib berishga qaratilgan ushbu tadqiqot tarix fanidagi mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

– O‘zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab o‘z tashqi siyosiy faoliyatini shakllantirishga kirishdi. O‘zbekiston milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda mamlakatning tashqi siyosiy strategiyasi, tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasi ularga to‘liq rioya qilgan holda qisqa muddat ichida jahon hamjamiyatining to‘la huquqli a’zosiga aylandi.

– Mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi belgilandi. Ushbu mintaqadagi yosh industrial rivojlangan mamlakatlar, jumladan Malayziya bilan teng huquqli hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga O‘zbekiston alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

– O‘zbekiston va Malayziya davlatlarining tashqi siyosatida jahon hamjamiyatidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy masalalarga qarashlardagi o‘xshashliklar ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli aloqalar o‘rnatilishi, va o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lida huquqiy asoslar yaratilishiga imkon berdi.

– O‘zbekiston va Malayziya davlatlari o‘rtasida imzolangan huquqiy hujjatlar, mamlakatlararo hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi sifatida, iqtisodiy sohalardagi aloqalarga zamin yaratdi. Shu asosda ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy va savdo aloqalari rivoj topishi, mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlariga Malayziya investitsiyalari kiritildi va respublikamizda bir qancha qo‘shma korxonalar tashkil etildi.

– Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatlararo munosabat va hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishida “xalq diplomatiyasi” nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Shuni inobatga olgan holda, O‘zbekiston va Malayziya davlatlari ikki mamlakat xalqlari o‘rtasida ko‘p qirrali madaniy aloqalar olib borilishiga katta e‘tibor berib kelmoqda. Natijada madaniyatning teatr, musiqa, adabiyot, fan, ta‘lim, sport, turizm kabi sohalarida keng miqyosli o‘zaro aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Mavzuni yoritish jarayonida tadqiqotchi tomonidan ijtimoiy voqelikni bilish va o‘rganishning dialektik metodi, uning ilmiylik, xolislik, tarixiylik, tizimlilik va rivojlanish tamoyillariga tayanildi. Asosiy e‘tibor yuz bergan voqealarning o‘zaro dialektik aloqadorligiga qaratildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol mafkurasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov asarlari, ma’ruza va nutqlarida ilgari surilgan mamlakat taraqqiyotining “o‘zbek modeli”, uning ichki va tashqi siyosatdagi xususiyatlari, shakllanayotgan zamonaviy xalqaro munosabatlarda O‘zbekistonning to‘la huquqli ishtirokiga oid nazariy xulosalari tashkil etdi. Shuningdek, davlat va hukumat qarorlarida ilgari surilgan ilmiy-nazariy, ma’naviy-mafkuraviy

ahamiyatga molik fikr-g'oyalar, metodologik va konseptual ko'rsatmalarga amal qilindi.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni hal etish jarayonida turli manbalardan olingan ko'p sonli material va hujjatlar o'rganib chiqildi hamda ilmiy muomalaga kiritildi. Tadqiqotning manbaviy asosini arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxivi asosiy baza bo'lib xizmat qildi. Bu arxivda biz asosiy diqqatimizni mustaqillik davriga oid M-2 va M-7 fondlariga qaratdik. Ushbu fondlarda o'zbek xalqining bugungi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotiga oid ko'p sonli qimmatli ma'lumotlar saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar mamlakatning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarini tahlil qilish, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy islohotlar, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan olib borilayotgan xalqaro hamkorlik aloqalarini o'rganish imkonini beradi.

M-2 fondida saqlanayotgan "O'zbekiston-Malayziya" do'stlik jamiyatining Nizomi, jamiyat majlislarining protokollari, e'lonlar va boshqa hujjatlar, Malayziyadan Toshkentga kelgan turli delegatsiyalar bilan uchrashuvlar haqidagi hisobotlar, O'zbekiston Respublikasi bilan Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, jumladan, Malayziya o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlikka oid materiallar ushbu tadqiqotni yozishda asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Bu materiallar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Hindi-Xitoy, Tinch okeani mintaqasi va Sharqiy Yevropa davlatlari bo'limiga tegishli bo'lib,

hujjatlarning bir qismi Tashqi ishlar vazirligining joriy arxivida ham saqlanmoqda.

M-7 fondidagi arxiv hujjatlari esa O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan Malayziya o‘rtasidagi madaniy hamkorlik, vazirlikning turli madaniy anjumanlaridagi ishtiroki haqidagi hisobotlar va boshqa materiallardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasidagi turli vazirlik va muassasalarga qarashli joriy arxivlardagi manbalar alohida guruhni tashkil etadi. Jumladan, O‘zbekiston bilan Malayziya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni yoritishga imkon beruvchi ko‘pgina ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiya vazirligi, “Petronas” kompaniyasi, “O‘zMalOyl” qo‘shma korxonasining joriy arxivlaridan olindi. Ularda ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar rivoji, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida tashkil etilayotgan qo‘shma korxonalar to‘g‘risidagi ko‘pgina ma’lumotlarni uchratish mumkin. Bu arxivlarda gumanitar sohadagi davlatlararo hamkorlikni yorituvchi qimmatli ma’lumotlar ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, “O‘zbekiston va Malayziya” do‘stlik jamiyati, “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, “ABDA Travel Co. LTD” kompaniyasi va boshqa tashkilotlarning joriy arxivlaridan olingan ma’lumotlarda har ikki davlat o‘rtasidagi madaniy hamkorlik xususida so‘z boradi. Ushbu vazirlik va muassasalarning joriy arxivlaridan olingan ma’lumotlar O‘zbekiston

Respublikasi bilan Malayziya o'rtasidagi ko'p qirrali madaniy hamkorlikka oid savollarga javob topish imkonini berdi.

Shuningdek, Malayziya davlatining O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi hamda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan ikki davlatning qo'shma korxonalaridan olingan ma'lumotlardan ham keng foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasidan olingan ma'lumotlar boshqa vazirlik va muassasalar arxiv xujjatlarini to'ldirishga xizmat qildi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi va turli byulletenlar, davriy matbuot materiallari asosiy manbalar bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonda nashr qilingan gazeta va jurnallardan O'zbekiston va Malayziya hamkorligiga oid turli xabarlar, tahliliy maqolalar va hukumat qarorlari tanlab olindi hamda bitiruv malakaviy ishni yozishda foydalanildi. Bundan tashqari Malayziyada ingliz tilida nashr qilingan ba'zi gazeta va jurnallardagi maqolalar ham tahlil doirasiga tortildi.

15-asrda va 16-asr boshlarida Malakka yarim orol, Riau arxipelagi va Sumatra orolning sharqiy qismi Malakka sultonligi qo'l ostida birlashtirildi. 1511 yil Malakka sultonligini Portugaliya bosib oldi. Malayziya hududining g'arbiy qismi — Malayyada bir necha sultonliklar tashkil topdi, bulardan eng yirigi — Joxor 16-18-asrlarda butun Malayyani o'z hokimiyati ostida birlashtirishga harakat qildi. 1641 yilda Malakkani gollandlar bosib oldi. 18-asr oxiridan Malayya davlatiga ingliz mustamlakachilari ta'sir ko'rsata boshladi. 1786-1888 yillar davomida inglizlar hozirgi Malayziya hududining katta qismini bosib oldi. Mustamlakachilarga karshi urush hamda qo'zg'olonlar bo'ldi

(1791, 1831-32, 1875-76, 1891-94 va h. k.).

2-jahon urushi davrida Malayziyani yapon armiyasi bosib oldi. 1943 yil Malayziyada bosqinchilarga qarshi xalq armiyasi tuzildi. 1945 yil 2 sentabrda yapon bosqinchilari xalq armiyasi tomonidan tor-mor etildi, mam-lakatda demokratik hokimiyat organi — xalq qo‘mitalari tuzildi. Ko‘p o‘tmay ingliz mustamlakachilari Malayziyaga qaytib, ilgorigi bosqinchilik tartibini o‘rnatishga harakat qildilar. Ayni vaqtda mustamlakachilar milliy ozodlik harakatiga siyosiy nayrang yo‘li bilan putur yetkazishga intildilar. 1946 va 1948 yillardagi konstitutsiya islohotiga ko‘ra, Singapur Malayyadan ajratildi. Malayya 1946 yildan Malayya Ittifoqi va 1948 yildan Malayya Federatsiyasi deb ataldi. 1946 yil Saravak va Sabax Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. 1948 yil iyunda ingliz hokimiyati mamlakatdagi milliy ozodlik harakatiga qarshi hujumga o‘tdi. 1949 yil fevralda malayya xalqining Ozodlik armiyasi tuzildi. 1955 yil Malayya Federatsiyasining qonun chiqaruvchi kengashiga saylovda Federatsiyaning Britaniya Hamdo‘stligi doirasida mustaqilligini yoklab chiqqan Uch partiya ittifoqi (1957 yildan Ittifoq partiyasi) g‘alaba qozondi. 1957 yil 31 avgustda Malayya Federatsiyasi mustaqilligi e‘lon qilindi. 1963 yil 9 iyunda Londonda Buyuk Britaniya, Malayya Federatsiyasi, Singapur, Sabax va Saravak o‘rtasida Malayziya Federatsiyasi tashkil topganligi to‘g‘risida o‘zaro bitim imzolandi; 1965 yil Malayziya bilan Singapur hukumati o‘rtasida kelishmovchilik bo‘lib, Singapur Federatsiya tarkibidan chiqib ketdi. Malayziya 1963 yildan BMT a‘zosi. 1992 yil 1 yanvarda O‘zbekiston Respublikai bilan diplomatiya munosabatlarini o‘rnatgan. Malayziyaning milliy bayrami — 31 avgust — Milliy kun (1957).

Siyosiy partiyalari, kasaba uyushmalari. Umum Malayziya islom partiyasi, 1951 yilda tuzilgan; Malayziya xind kongressi, 1946 yilda asos solingan; Malayziya xitoy uyushmasi, 1949 yilda tashkil etilgan; Malayya birlashgan milliy tashkiloti (yangi), 1988 yilda asos solingan; Demokratik harakat partiyasi, 1966 yilda tuzilgan; Milliy front, 1973 yilda 12 partiyaning hukmron koalitsiyasi (ittifoqi) tarzida tashkil etilgan. Malayziya kasaba uyushmalari kongressi, 1949 yilda tuzilgan.

Xo‘jaligi. Malayziya — industrial-agrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda i.ch. sanoatining ulushi — 28,7%, konchilik sanoatining ulushi — 9,3%, qishloq xo‘jalikning ulushi — 17,3%. Qishloq xo‘jalikning asosiy ekini — sholi bo‘lsa ham, mamlakat ehtiyojini qondirmaydi. Mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog‘i kauchuk ishlab chiqarishdir. Bundan tashkari, kokos palmasi, ananas, kakao, choy, murch, sabzavot, mevalar yetishtiriladi. Chorvachilik sust rivojlangan; qoramol, cho‘chqa boqiladi. Dengiz qirg‘og‘i yaqinida va darelarda baliq ovlanadi. Eksport uchun yog‘och tayyorlanadi. Ishlab chiqarish sanoatining asosiy tarmoqlari: elektrotexnika, neftni qayta ishlash, kimyo, metallurgiya, avtomobil, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati; konchilikning asosiy tarmoklari: neft, tabiiy gaz, qalay, temir va mis rudalari, boksit qazib chiqarish. Malayziya integral sxema, konditsioner, radio va teleapparaturalar ishlab chiqarish bo‘yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biri. Yiliga 24,8 mlrd. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi. Kauchuk, palma yog‘i, qalay eksport qilishda dunyoda oldingi o‘rinlardan birida turadi. Hunarmandchilik (ganchkorlik, zargarlik, kashtachilik va b.) rivojlangan.

Temir yo‘llari uz. 2,2 ming, avtomobil yo‘llari uz. 52,5 ming

Malayziya Dengiz savdo flotining tonnaji — 2,9 mln. t. dedveyt. Dengiz portlari: Kelang, Jor-jtaun, Kuantan, Kuala-Lumpur. Jorjtaun, Kota-Kinabaluda aeroportlar bor.

Malayziya chetga neft, elektron va elektrotexnika buyumlari, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, transport vositalari (jumladan, avtomobil), rezina texnika, to‘qimachilik mahsulotlari, poyabzal, kiyim-kechak sotadi; chetdan mashina-uskuna, sanoat va optika jihozlari, transport vositalari, stanoklar, oziq-ovqat oladi. Savdo-sotikdagi asosiy mijozlari: Yaponiya, Singapur, AKSH, Yevropa Hamjamiyati mamlakatlari, Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan. Pul birligi — ringgit (Malayziya dollari).

Maorifi, ilmiy va madaniy-ma’rifiy muassasalari. Xalq maorifi tizimi 6 yillik boshlang‘ich maktab (6 yoshdan 12 yoshgacha bulgan bolalar uchun), 3 yillik kichik o‘rta maktab va 2 yillik katta o‘rta maktab (katta o‘rta maktab huzurida ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va texnika hamda kasb-hunar ta’limi bo‘limlari bor) dan iborat. Hunar-mandchilik maktablari, o‘rta texnika kollejlari va oshirilgan toifadagi texnika kollejlarida ham turli kas-blar o‘rgatiladi. Kuala-Lumpur universiteti (1962), Milliy universitet (1970), Texnologiya universiteti (1972), qishloq xo‘jalik universiteti (1973), Jorjtaundagi universitet oliy ta’lim beradi. Kuala-Lumpurda Milliy kutubxona (1971), Milliy muzey (1963, arxeologiya, etnologiya, zoologiya majmuasi bilan) bor. Tabiiy kauchukni tadqiq qilish instituti, qishloq xo‘jalik ilmiy tadqiqot instituti, o‘rmonchilik va tropik baliqchilik tadqiqot markazlari, tibbiyot ilmiy tekshirish instituti, Ijtimoiy fanlar tarixi jamiyati, Malayya tili va adabiyoti agentligi, Tamil tili jamiyati mavjud.

Matbuoti, radioeshittirishi va teleko'rsatuvi. Mamlakatda nashr etiladigan yirik gazetalar: «Berita xarian» («Kun yangiliklari», Malayziya tilida chiqadigan kundalik gazetasi, 1957 yildan),

«Biznes tayme» («Biznes vaqti», ingliz tilida chiqadigan kundalik gaz., 1976 yildan), «Malay meyl» («Malayya pochtasi», ingliz tilida chiqadigan kechki gaz., 1896 yildan), «Mingguan Malayziya» («Malayziya hafta ichida», Malayziya tilida chiqadigan yakshanbalik gazetasi, 1964 yildan), «Nanyan shan-bao» («Janubiy dengizlar savdo gazetasi», xitoy tilida chiqadigan kundalik gazetasi, 1923 yildan), «Star» («Yulduz», ingliz tilida chiqadigan kundalik gazetasi, 1971 yildan), «Tamil nesan» («Tamillar posboni», ta'mil tilida chiqadigan kundalik gazetasi, 1924 yildan) va boshqalar. Bernama axborot agentligi, 1967 yilda ta'sis etilgan. Malayziya radiosi 1946 yildan, Malayziya televideniyesi 1963 yildan ishlaydi.

Adabiyoti malayya, xitoy, tamil va ingliz tillarida Malayya tilida yaratilgan adabiyot asosiy o'rinni egallaydi. 7-asrda tarixiy, huquqiy, diniy mavzulardagi asarlar, avliyo-anbiyolarning qissalari, nasihatgo'ylik adabiyoti yaratila boshladi. Malayya adabiyotining yangi davrini boshlab bergan adib Abdullo ibn Abdulqodir Munshiydir. U o'zining «Abdullo haqida qissa» (1849) asarida ijtimoiy tengsizlik, johilliklarni tanqid qiladi. 1925—26 yillarda Sayd Shayx ibn Axmad allodining zamonaviy Misr hayotidan olib yozgan «Farida Xonim» romani maydonga keldi. Keyinchalik Ahmad Navobi bin Muhammad Ali, Ahmad ibn Ismoil va b. ham ko'plab asarlar yarata boshladilar. Ahmad bin Hoji Muhammad Rashid Tol ilk bor malayya qahramonlari ishtirokidagi «Haqiqiy do'st» (1927), «Bu Salmami?» (1928) va b.

romanlar yaratdi.

30-yillarda yaigi indonez adabiyotining ta'siri kuchaydi; ASR Samad bin Ahmad, ASR Baxtiyor, R. Mansur va b.ning milliy ruhdagi romanlari paydo bo'ldi. Xususan, milliy harakat arbobi Abdulloh Siddiqning «Birga kurashaylik» (1941) romanida vatanparvarlik va mustamlakachilarga qarshi kurash mavzulari keng yangradi.

50-yillarda adabiyotda asosiy o'rinni xalq hayotiga bag'ishlangan she'r va hikoyalar egalladi. 1950 yil bir guruh qalamkashlar — K. Maye, U. Avang, Malayziya Asraf, ASR Samad Ismoil va b. «50-yillar avlodi» adabiyot birlashmasini tashkil etdilar va «San'at jamiyat uchun» degan shiorni olg'a surdilar. Milliy ozodlik harakati adabiyotning asosiy mavzui bo'lib qoldi.

Keyingi yillarda ASR Samad Sayd («Salina»), ASR Vati («Aylana»), ASR Ali («Inqiroz»), ASR Samad Ismoil («Vazir»), Ibrohim Umar («Chapdagi qadam»), S. Usmon Kelantan («Shimoli-sharqdagi shabada») va b.ning asarlarida muxim ijtimoiy muammolar ko'tarilgan.

Malayziyada tamil (S. Vadivel, J. Perumal, G. S. Shanmugam), xitoy (Sun Y, Szyan Jen) va ingliz (Li Kok-Yang, Uy Bun-Seng) tillarida ham adabiyot rivojlanayotir.

Me'morligi va tasviriy san'ati. Malayziya hududida mil. av. 1-ming yillikning 2-yarmiga oid guldor sopol idish va hay-kallar (Alor-Gajax va Bexal-Limadagi tosh yodgorliklar), Klangda va Tembeling daryosi bo'yida xarsang terrasalar, sag'analar, jez buyumlar topilgan. 7—8-asrlargacha hind namunalariga taqlid qilingan: Budda ibodat-xonalari va haykallari tiklangan. Bezak san'atida oltin va kumushdan, shoyi,

sopoldan foydalanilgan, kashtachilik rivojlangan. 14-asrdan islom dini kirib kelishi munosabati bilan musulmon inshootlari qurish urf bo‘ldi (Perax, Kedax va Joxorda 17— 18-asrlarda mayejid va maqbaralar qurilgan). 15—19-asrlarda, ayniqsa, kulolchilikda xitoylarning ta’siri kuchaydi. 16-asrda mustamlakachilar bostirib kelgach, qad. madaniyat tanazzulga uchrab, yevropacha me’morlik va san’at shakllari joriy etila boshladi. 19-asr 2-yarmida shaharlar (Pinang, Kuala-Lumpur) rivojlandi. Yevropa, Xitoy, Hindiston, musulmon uslublari qorishmasidan iborat imoratlari qurildi. Turar joylar qoziq va toshlar ustiga, yerga yog‘och hamda bambuk sinchlardan barpo etildi.

20-asrdan katta shaharlar yonida Tesak, Joxor-Baru, Batter-ert kabi yo‘ldosh shaharchalar barpo etila boshladi. Malayyaning «kampong» deb ataluvchi qishloklari zich tarzda yoki yo‘llar, daryolar, tog‘ vodiylari bo‘ylab joylashtiriladi. Malayziya daryolarida bambuk kulbali sollarni, uy-qayiklarni uchratish mumkin. Mamlakatning qadimiy aholisi bo‘lmish changalzor kishilari bambuk va palma yaproqlaridan yasalgan chaylalarda yashay-di. Yangi qishloqlarda g‘isht, temir-beton va yog‘ochdan uylar qurilayotir.

20-asr boshlaridan chinni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Xonadonlarda to‘qilgan gazmoldan sarongi deb ataluvchi milliy kiyim va ro‘mollar zardo‘zlik usulida tayyorlanadi. Perakda kashtachilik rivojlangan. Kelantan zargarlari zeb-ziynat buyumlari, o‘yma naqshli idishlar, qumg‘onlar, qutichalar yasaydilar.

Malayziyaning zamonaviy tasviriy san’atida rassomlik, haykaltaroshlik rivojlangan. Hunarmandchilikning kulolchilik, to‘quvchilik, savat to‘qish kabi turlari saklangan.

Kinosi. Xar yili mamlakatga 1000 tagacha xorijiy film keltiriladi. Bunday sharoitda milliy kinematografiyaning rivojlanishi juda qiyin. Malayziyada dastlabki chinakam milliy kinofilmlar 50-yillarning oxirlarida yaratildi. Ularning aksariyati an'anaviy musiqiy dramalardan iborat. Rejissor, ssenariychi, kompozitor, aktyor va xonanda P. Remli shunday dramalarni saxnalashtirishga ixtisoslashgan. Keyingi yillardagi anchagina kinokartinalar Tailand, Singapur, Filippin, Indoneziya kabi mamlakatlar bilan birgalikda yaratildi. 1981 yilda kinoni rivojlan-tirish tashkiloti tuzilgan. Badiiy filmlar orasida quyidagilar bor: «Xang Tuan» (rej. F. Mejundar), «Semerax Padi» (rej. P. Remli), «Yig'la-ma» (rej. R. Timoer), «Muhabbat va qo'shiq» (rej. D. Sulong), «Ertangi kun umidida» (rej. D. Shamsuddin), «Ona, onajon» (rej. ASR Mahmud).

O'zbekiston — Malayziya munosabatlari. Iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun avvalo huquqiy negiz yaratildi. 1992 yil iyunida O'zR Prezidenti I. ASR Karimovning Malayziyaga tashrifi vaqtida «Madaniy va ilmiy hamkorlik», «Iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik» to'g'risida bitimlar imzolandi. 1993 yil mart—aprel oylarida Malayziya bosh vazirining O'zbekistonga tashrifi yakunida ham bir qancha hujjatlar qabul etildi. Natijada ikkala mamlakat o'rtasida tovar ayirboshlashga kirishildi. 1999 yilda tovar aylanmasi 4,9 mln. AKSH dollarini tashkil etdi.

O'zR da Malayziyalik sarmoyadorlar ishtirokida tuzilgan 10 ta qo'shma korxonalar mavjud. «Otel O'zbekistan», «O'zMalOyl» (neft konlarini ishlatish), «O'zMakom» (telefon xizmati), «O'zbeklizing Interneyshnl» (kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash) ularning eng yiriklaridir.

Malayziya tili — avstronez tillari oilasiga mansub, Malakka yarim orol va unga yaqin orollarda, Malayziya Kalimantananda tarqalgan. Malayziya Federatsiyasining rasmiy tili hisoblangan, 10 mln.dan ziyod kishi soʻzlashuvchi til; 1969 yilgacha u bilan birga «malayya tili» termini ham qoʻllangan. Malayziya tili Malakka yarim oroldagi malay lahjalari, xususan, joxor lahjasi asosida rivojlanib kelmoqdalar. Bu laxja baʼzi tovushlari, fonetik uzgarishlari va grammatik bel-gilari bilan adabiy tildan farq qiladi. Adabiy tilda bogʻlovchi va old koʻmakchilar miqdorining koʻpayishi, murakkab sintaktik tuzilmalarning rivojlanishi kuzatiladi; barcha sathlarda (terminologiya, soʻz yasalihi, sintaktik qoliplar va b.) indonez tilining taʼsiri seziladi. Lugʻat tarkibida arab va ingliz tillaridan oʻzlashmalar anchagina, terminlarning aksariyati inglizcha birikmalar qoli-pi asosida yaratilmokdasr Yozuvi lotin alifbosiga asoslangan. Malayyalar - 1) Jaubiy-Sharqiy Osiyoda yashaydigan, indonez til lahjasida soʻzlashadigan xalqlarning qadimdan keng tarqalgan nomi; 2) Malayziya (12,8 mln. kishidan ortiq), Indoneziya (10,8 mln. kishi, asosan, Kalimantan va Sumatra orollarida), Tailand, Singapur va Bruneydagi etnik birlik. Umumiy soni 21,3 mln. kishi (1990-yillar oʻrtalari). Malayya tilida soʻzlashadilar. Dindorlari — sunniy musulmonlar.

1.2. O‘zbekiston va Malayziya davlati o‘rtasida o‘zaro foydali munosabatlar va hamkorlik o‘rnatish asoslarining yaratilishi

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatda demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy jamiyat qurish va iqtisodiyotning keng tarmoqlariga ega bo‘lgan industrial-agrar davlat asoslarini barpo etish vazifalari turgan edi. Shu asosda mamlakatda amalga oshirilayotgan ichki islohotlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov boshchiligida “o‘zbek modeli” nomini olgan rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilganiga urg‘u beriladi. Bu borada “o‘zbek modeli” nomi bilan ataluvchi O‘zbekistonning ichki rivojlanish strategiyasi sal kam yigirma yil ichida o‘zining afzallik tomonlarini namoyish etib, jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholangani ko‘rsatib o‘tiladi.

Jahon mamlakatlarning tajribalariga asoslangan holda, har qanday davlatning yangilanishi va taraqqiyoti nafaqat ichki islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, balki mamlakat tashqi siyosiy strategiyasining nechog‘lik to‘g‘ri tanlangani, umumjahon jarayonlaridagi faol ishtiroki bilan uzviy bog‘liq. Ya’ni mamlakat taraqqiyotining ichki strategiyasi, tashqi siyosat strategiyasi bilan bog‘liqdir. Shu bois ham O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy jarayonlarini jadallashtirishda, mamlakatning tashqi siyosiy faoliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Shu o‘rinda tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki bosqichida mamlakat tashqi siyosiy faoliyatini shakllantirish

jarayonida ayrim qiyinchiliklarga duch kelgani va ular bevosita sobiq mustabid sho‘ro tuzumining asoratlari bilan bog‘liq bo‘lganligini asosli ravishda ko‘rsatib o‘tilgan. “ O‘zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish, – deb ta’kidlagan edi Prezident I.A.Karimov, – davlat faoliyatining yangi va amalda qo‘llanilmagan yo‘nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O‘zbekiston xalqaro maydonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo‘lib, o‘zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi”.¹⁷

Shunga qaramay, mamlakat rahbariyati o‘zbek xalqi va uning davlatchilik tarixida yangi sahifa ochilgan birinchi kundanoq O‘zbekiston tashqi siyosatining asoslarini shakllantirishga jadal kirishdi. Natijada qisqa muddat ichida jahon tajribasi va umum e’tirof etgan standartlar asosida tashqi siyosat yuritadigan va xalqaro aloqalar bog‘laydigan institutsional tuzilmalar shakllantirildi. Ayni vaqtda O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov boshchiligida mamlakat tashqi siyosatining milliy manfaatlarga mos keluvchi strategiyasi, prinsiplari va ustuvor yo‘nalishlari ham ishlab chiqildi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari ilmiy asoslangan tadqiqotda uning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Janubi-Sharqiy Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar bilan har tomonlama o‘zaro foydali munosabatlar va hamkorlik o‘rnatish hamda uni rivojlantirish zarurligiga alohida urg‘u berilmoqda. Bu shu bilan ham bog‘liqki, ushbu mintaqada bir qator yangi industrial davlatlar joylashgan bo‘lib, ularning hozirgi dunyodagi global muammolarga

¹⁷ Karimov I. A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – T. 1. – T., 1996. – B. 50.

siyosiy qarashlari va nuqtai nazarlari, shuningdek iqtisodiyotni modernizatsiyalash va xorijiy mamlakatlar investitsiyalarini sanoatning fan yutuqlariga asoslangan tarmoqlariga jalb qilish borasida to‘plagan tajribasi respublikamiz uchun katta qiziqish uyg‘otadi.

Janubi-Sharqiy Osiyo o‘z ichiga o‘nta rivojlanayotgan davlatni oladi¹⁸. Ular orasida Indoneziya, Malayziya, Singapur va Filippin mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va rivojlanish sur‘atlari kattaligi bilan ajralib turadi. Ularning mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo‘lgandan keyingi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borasida to‘plagan tajribasi yangi mustaqil mamlakatlar uchun juda saboqlidir. Shu sababli, rivojlanishning o‘tish davrida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi uchun Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarning borishini kuzatish va ilmiy-tahliliy o‘rganish juda muhimdir.

Tadqiqotda bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari singari XX asr oxirida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi qiyinchiliklariga duch kelgani kabi faktik ma’lumotlarga alohida e’tibor berilgan. Shu o‘rinda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish borasidagi yondashuvlar va yo‘llarning bir xilligi ham e’tiborga molikdir. Masalan, ushbu masalani tadqiq etish Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari sanoatni rivojlantirish yo‘lida ayrim qiyinchiliklarga duch kelganligini ko‘rsatmoqda. Ulardan biri XX asrning 90-yillari oxirida boshlangan Osiyo inqirozidir. Bu davrda ushbu mamlakatlar jahon YAIMning 3,6 % ni ishlab chiqargan, dunyo savdosining deyarli 7 %, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning

¹⁸ Janubi-Sharqiy Osiy mamlakatlari Brunej, Vyetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, M‘yanma, Singapur, Tailand, Filippin mamlakatlari kiradi.

6 %, kreditlar va portfel investitsiyalarining 5,2 % ular hissasiga to‘g‘ri kelgan¹⁹.

Osiyo inqirozini yuzaga keltirgan sabablarni tekshirish Gongkong birjasida kelib chiqqan birja inqirozi ana shunday omillardan biri bo‘lganidan dalolat beradi. Bunday inqirozning sababi esa – jadal iqtisodiy o‘shish va arzon G‘arb kreditlarining nihoyatda oson olinishi bilan ajralib turgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari valyuta bozorlaridagi umumiy inqiroz edi. Bunday murakkab inqirozli vaziyatda qolgan ushbu mintaqa mamlakatlari inqirozdan chiqish bo‘yicha milliy dasturlarni ishlab chiqa boshladilar. Ko‘rilgan choralar tufayli Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari inqirozli vaziyatdan nisbatan tez chiqa oldilar.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining o‘sha vaqtdagi ahvoli ko‘p jihatdan 2008 yilda boshlangan dunyo moliyaviy inqirozi sharoitidagi O‘zbekiston Respublikasining ahvoliga o‘xshashdir. Ushbu inqiroz oqibatlari dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ahvolga nihoyatda katta miqyosda ta’sir ko‘rsatdi. U ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarishning keskin kamayib ketishi, iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari kamayishiga olib keldi. Bunday sharoitda mamlakatimiz rahbariyati inqirozning O‘zbekiston uchun salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida barcha zarur choralarni ko‘rdi. Bu 2009–2012 yillarga mo‘ljallangan inqirozga qarshi dasturda o‘z ifodasini topdi.

Ko‘rib turganimizdek globallashtirish sharoitlarida siyosiy e’tiqodlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelgusi istiqbolga

¹⁹ Qarang: Kurbanov F. Opit razvitiya stran Yugo-Vostochnoy Azii i vozmozhnosti yego primeneniya v Uzbekistane // Bozor, pul va kredit. – 2003. – № 3. – S. 59.

mo'ljallangan vazifalarni belgilashi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tajribasini o'rganishdek ehtiyoj borgan sari keskinroq tus oladi.

Ta'kidlash lozimki, bugun Janubi-Sharqiy Osiyo, geosiyosiy nuqtai nazardan, shuningdek ushbu mintaqadagi mamlakatlarning rivojlanish tajribasini o'rganish nuqtai nazaridan, O'zbekiston Respublikasi uchun ulkan strategik qiziqish uyg'otadi. Bunday fikrlashimizga quyidagi asosiy sabablar asos bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi, O'zbekiston hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalaridagi qarashlari o'xshash ekanligi. Jumladan, O'zbekiston Markaziy Osiyoda tutgan geosiyosiy o'rniga ko'ra Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) singari submintaqaviy siyosiy-iqtisodiy tashkilot doirasida faollik ko'rsatmoqda²⁰. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN) deb nomlangan submintaqaviy siyosiy iqtisodiy tashkilotga birlashgan ushbu mintaqa mamlakatlari ham xuddi shunday mavqega egadirlar. Ularning asosiy vazifasi tashkilot makonida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish, shuningdek boshqa mintaqalardagi davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni yo'lga qo'yib, rivojlantirishdir.

Ikkinchi, bozor islohotlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar qilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari to'plagan tajriba, ularning taraqqiyot yo'lida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish borasidagi hamkorlik shakllari juda qadrlidir.

²⁰ Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) – 2001 yil iyun oyida Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston ishtirokida tashkil etilgan.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida madaniy va diniy masalalarda ko‘plab umumiy jihatlar mavjud. Bu avvalo ularda qadimiy madaniy-ma’naviy an’analar mavjudligi, umuminsoniy manfaatlarga gumanistik qarashlari va aksariyat aholi orasida musulmonlarning ko‘pchilikni tashkil qilishi bilan bog‘liqdir.

Mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining asoslari ishlab chiqilishi natijasida, hamda mamlakatning real siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy darajasidan kelib chiqib, shuningdek respublikaning rivojlanishidagi o‘tish davrida uning oldida turgan vazifalarni inobatga olgan holda, dunyodagi yangi industrial rivojlangan davlatlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatishga alohida ahamiyat berildi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari to‘la asos bilan ana shu qatordagi davlatlar qatoriga kiradi.

Shunday qilib, tadqiqot materiallari hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham global, ham mintaqaviy darajada manfaatlarda ko‘plab umumiy nuqtalar mavjud, degan xulosa chiqarishimizga asos bo‘ladi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi va Janubi-Sharqiy Osiyodagi ayrim mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lida ikki davlat to‘plagan tajribani o‘rganishga o‘zaro qiziqishning mavjudligi va har tomonlama hamkorlikka ehtiyojning borligi bugungi kunning obyektiv voqeligidir.

II-Bob. O‘zbekiston-Malayziya munosabatlarining shakllanishi va iqtisodiy sohadagi hamkorligi

2.1. O‘zbekiston va Malayziya davlatlarining keng qamrovli va o‘zaro manfaatli iqtisodiy aloqalari

Jahon hamjamiyatining to‘la huquqli a‘zosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida ishlab chiqilgan o‘z tashqi siyosiy strategiyasi va undagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarni hayotga tatbiq etishga kirishdi. Bu borada, respublikamizning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, jumladan Malayziya bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatgani alohida diqqatga sazovor.

O‘zbekiston Respublikasi, Malayziyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi xususiyatlarni e‘tiborga olib, bu davlat bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga kirishdi. Buning bir qancha obyektiv sabablari mavjud:

Birinchidan, Malayziya va O‘zbekiston mustaqillikka erishgan hamda o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab olgan sobiq mustamlaka mamlakatlardir. Shu bois Malayziyaning yarim asrlik mustaqil taraqqiyoti davrida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarda olib borilgan islohotlar va bu borada to‘plangan tajriba yangi mustaqil davlatlar, jumladan O‘zbekistonda katta qiziqish uyg‘otdi.

Ikkinchidan, hozirgi kunda xalqaro muammolarning yechimini topish jarayonida, ikki mamlakat qarashlarining o‘zaro o‘xshashligi

O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlarning rivojlanishiga muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, Malayziyada Islom davlat dini bo‘lganligi va islom dunyosida ushbu mamlakatning o‘z o‘rni borligi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan munosib baholanmoqda. Bunda Malayziya bilan keng qamrovli munosabatlarni rivojlantirish Islom Konferensiyasi tashkilotiga a‘zo davlatlar bilan aloqalarning faollashuviga keng imkoniyatlar ochib beradi. Dinni niqob qilib olgan diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi kuchayib borayotgan hozirgi tahlikali zamonda bu aloqalarni rivojlantirish favqulodda katta ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, Malayziyaning ilg‘or texnologiyalarga asoslangan keng tarmoqli sanoat infratuzilmasi hamda iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida erishgan yutuqlari rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun muxim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, Malayziya xalqining hozirga qadar saqlanib qolgan qadimiy madaniy-tarixiy an‘analari uning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanidan dalolat beradi. Malayziya xalqiga xos bunday fazilatlar bilan uzoq asrlik tarix va madaniyatga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining urf-odat va an‘analari o‘rtasida yaqinlik, umumiylik mavjudligini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Ikkala mamlakat xalqlari o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlik va o‘ziga xos jihatlarni inobatga olgan O‘zbekiston rahbariyati Malayziya bilan madaniyat, ilm-fan, ta’lim, sport, turizm va boshqa gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Ushbu omillar O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi yetakchi davlatlardan biri bo‘lmish Malayziya bilan o‘zaro manfaatli va

teng huquqli aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor ekanidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, yosh mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosat strategiyasiga xos xususiyatlar Malayziya davlatida mamlakatimiz bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatishda katta qiziqish uyg‘otdi. Shu asosda 1992 yilning 1 yanvarida Malayziya tomonidan O‘zbekiston mustaqilligi rasman tan olindi²¹. 1992 yilning 21 fevralida ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi²². Natijada 1993 yilning iyunida Toshkentda Malayziyaning, 1999 yil dekabrda esa Kuala-Lumpurda O‘zbekistonning elchixonalari faoliyat ko‘rsata boshladi²³.

Jahon tajribasidan ma’lumki, mamlakatlar o‘rtasida aloqalarni yo‘lga qo‘yishda davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvlari va bu jarayonda imzolangan shartnomalar nihoyatda muhimdir. Shu asosda O‘zbekiston va Malayziya davlat rahbarlarining bir qancha uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Malayziyaga qilgan rasmiy tashriflari 1992 yil iyun²⁴ va 2005 yil oktabr²⁵ oylarida amalga oshirildi. Agar O‘zbekiston rahbarining Malayziyaga qilgan birinchi safari chog‘ida asosiy e’tibor ikki mamlakat o‘rtasida savdo, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalariga qaratilib, tegishli hujjatlar imzolangan bo‘lsa²⁶,

²¹ O‘zbekiston Respublikasi va Malayziya o‘rtasida diplomatik munosabatlar to‘g‘risida. 1992 yil 21 fevral protokoli.

²² O‘sha joyda.

²³ “Malayziyada O‘zbekiston Respublikasi Elchixonasini ochish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 22 dekabrda 409-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari. – 1996. – Dekabr. – B. 124.

²⁴ Qarang: Xalq so‘zi. – 1992. – 20 iyun.

²⁵ O‘sha joyda. – 2005. – 5 okt.

²⁶ O‘zR MDA. M-2-fond. 1-ro‘yxat. 188-ish. 37-varaq.

ikkinchi rasmiy tashrif chog'ida ikki mamlakat o'rtasida o'tgan yillar mobaynida o'zaro foydali aloqalar sur'atlarining oshib borayotgani e'tiborga olinib, hamkorlikning kelajakdagi istiqbollari belgilab olindi. Bunda davlatlararo hamkorlikni yanada yuqori darajalarga olib chiqish uchun ikkala tomonning hozirgacha ishga solinmagan imkoniyatlarini ishga solish va ularni yangi huquqiy asoslar bilan mustahkamlash ko'zda tutildi. Shuningdek, ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasida bank-moliya, sarmoya, aloqa texnologiyalari va axborotlashtirish, yengil va og'ir sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalardagi hamkorlikka oid 16 ta hujjat imzolandi. "Petronas" korporatsiyasi bilan imzolangan ikkita hujjatni ham qo'shib hisoblaganda iqtisodiy masalalar bo'yicha 18 ta kelishuvga erishildi. Ularning moliyaviy qiymati 400 million AQSH dollaridan ortiqdir²⁷.

Ikki mamlakat aloqalari yo'lga qo'yilganidan buyon Malayziya davlat rahbarlari O'zbekistonga bir necha bor rasmiy safar bilan tashrif buyurdilar. Bundan tashqari, O'zbekiston va Malayziya o'rtasida parlamentlararo aloqalarning yo'lga qo'yilganligi ham o'zaro manfaatli munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qildi²⁸.

O'zbekiston hamda Malayziya davlat rahbarlari va vakillari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvlar davomida imzolangan shartnomalar ikki mamlakat hamkorligining muhim huquqiy asosini tashkil etdi.

Ikki mamlakat iqtisodiy aloqalarining holatini mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining darajasidan ko'rish mumkin. O'zbekiston va Malayziya davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalariga nazar

²⁷ Qarang: Xalq so'zi. – 2005. – 5 okt.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining joriy arxivi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi. O'zbekiston-Malayziya munosabatlari. 1-ish. 6-varaq.

tashlasak, umumiy tashqi savdo aylanmasi 1996 yilda – 3,0 mln., 2001 yilda – 7,0 mln., 2005 yilda esa 16,2 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan²⁹. O‘zaro savdoda O‘zbekiston eksportining asosiy qismini plastmassa buyumlar, asbob-uskunalar va apparatlar, spirtli va salqin ichimliklar, ipak va xizmatlar tashkil etgan. Malayziyadan kelayotgan import mollar tarkibida texnik jihozlar, optik asboblari, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy o‘rin egallagan³⁰.

Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston rahbariyati neft importidan voz kechish, ichki bozor ehtiyojini mamlakatda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli neft mahsulotlari bilan qondirish hamda neftni eksport qilishni O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik vazifalaridan biri qilib belgilab oldi. Shu asosda 1994 yil 3 mayda “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi Malayziyaning Probadi SDN BXD kompaniyasi bilan hamkorlikda neft konlarini qidirib topish va boshqa sohalarini rivojlantirish to‘g‘risida shartnoma imzoladi. Ushbu ikki qo‘shma korxonalar «O‘zMalOyl» deb nomlandi³¹.

Tadqiqotda O‘zbekiston Malayziyaning jahonda mashhur kompaniyalaridan bo‘lgan “Petronas” bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygani va amalga oshirayotgani dalillar orqali ochib berilgan³².

Bundan tashqari, iqtisodiyotning yengil sanoat sohasida “O‘zbekengilsanoat” Davlat aksionerlik kompaniyasi Malayziya kompaniyalari bilan hamkorlik borasida imzolagan bir qancha shartnomalarning bajarilish jarayonlari tahlil qilingan. Jumladan, “O‘zbekengilsanoat” DAK va Malayziyaning “Vivarnt” kompaniyasi

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining joriy arxivi. 1992-2005 yillar.

³⁰ O‘sha joyda. – B. 10.

³¹ “O‘zMalOyl” qo‘shma korxonasi joriy arxivi. Hisobotlar. 1-ish. 1-varaq.

³² Malayziyaning O‘zbekistondagi «Petronas» kompaniyasi joriy arxivi. 2005. – B. 7.

umumiy qiymati 500 ming AQSH dollarini, “O‘zbektekstilmash” va Malayziyaning «Tiway Sdn Bhd» kompaniyasi 1,7 million AQSH dollarini tashkil qiladigan loyihalar ustida ish olib borayotgani ko‘rsatib o‘tilgan³³.

Tadqiqot natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik o‘zaro tovar ayirboshlashni rivojlantirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi sarmoya loyihalarini hayotga joriy etish, sanoat korxonalarini ilg‘or xorijiy texnologiyalar bilan qayta jihozlash, kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek qo‘shma korxonalar barpo etish asosida amalga oshirib kelinmoqda.

³³ O‘zbekiston yengil sanoati Malayziya sarmoyachilari nigohida. <http://www.mfa.uz/jahon>. – 2005. – 3 okt.

2.2. O‘zbekiston va Malayziya davlatlari o‘rtasidagi madaniy hamkorlik

O‘zbekistonning istiqloлга erishuvi ma’naviy madaniyatni rivojlantirish, xalq ta’limini yuksaltirish, madaniy-tarixiy merosni saqlash, madaniyatning an’anaviy shakllarini ehtiyot qilish muammolarini kun tartibiga qo‘ydi. Madaniy-axborot ayrboshlashni kengaytirish, turli xalqlar madaniy qurilishidagi ijobiy tajribalarni keng yoyish ma’naviy yuksalishning jadallashuviga imkoniyat yaratadi.

Madaniyatning eng muhim xususiyatlaridan biri u insoniyat tarixining barcha bosqichlarida milliy manfaatlar asosida rivojlanar ekan ayni vaqtda o‘zida umuminsoniy mazmuni ifoda etgan. Milliy madaniyat rivojlanishining muhim sharti barcha xalqlarning avloddan avlodga o‘tuvchi barcha xalqlarning xilma-xil madaniy boyliklaridan, madaniyat yutuqlaridan foydalanishdir.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston va Malayziya davlatlari o‘rtasida madaniy hayotning axborot vositalari, san’at, teatr, kino, adabiyot va adabiyotshunoslik hamda nashriyot sohalardagi aloqalari va hamkorligini yo‘lga qo‘yishga katta ahamiyat berilmoqda. Darvoqe, bu sohalardagi madaniy aloqalar mashaqqatli bo‘lsa-da, tobora chuqurlashib mustahkamlanib bormoqda. Chunki ikkala respublika o‘rtasida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari hamda boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama aloqalar va hamkorliklar sohasida mazkur yo‘nalishlarda ham katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni biz, eng avvalo, axborot vositalari sohasida ko‘ramiz.

Ma'lumki, "Axborot asri" deb nom olgan asrimizda insonlar, millatlar va davlatlar hayoti hamda faoliyatini ommaviy axborot vositalari va axborot kommunikatsiyalari texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "XXI asr – shiddatkor tezliklar asri, axborot va axborot texnologiyalari asri, intellektual resurslar, yuksak texnologiya va zamonaviy bilimlar insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanayotgan davri"³⁴. Shunga ko'ra, jahondagi va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston va Malayziya davlatlari o'rtasidagi aloqalar va hamkorliklarda ommaviy axborot vositalari (OAV)ning rolini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot bozorida siyosiy partiyalar, ko'plab jamoat tashkilotlarining gazeta va jurnallari, 320ga yaqin mustaqil nashrlar o'z o'rnini topishga intilmoqda. Matbuot nashrlari 12 tilda chop etilayotgani esa ko'pmillatli davlatimizdagi barcha fuqarolarning axborot olish konstitutsiyaviy huquqlari ta'minlanayotganidan dalolat berib turibdi³⁵.

Bugungi kunda respublikamizda 1103 ta ommaviy axborot vositalari mavjud, shundan 694 tasini gazetalar tashkil etadi³⁶.

Madaniy sohadagi davlatlararo hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar bo'yicha do'stlik jamiyatlari kengashi (O'zR DJK)³⁷, Madaniyat va

³⁴ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. 2002 yil 29-30 avgust kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq t'ukuzinchi sessiyasida s'uzlangan nutq. – Toshkent: U'zbekiston, 2002. – B. 12.

³⁵ Саидназаров И. Ахборотлашган жамият – оммавий ахборот воситалари фаолиятининг устувор йўналишлари // Жамият, 2008 йил 3 октябр.

³⁶ Маткаримова Д. ОАВ: мустақкам қонуний асослар. // Инсон ва қонун, 2008 йил 25 ноябр.

³⁷ U'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar b'uyicha d'ustlik jamiyatlari kengashi dastlab U'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992 yil 25 martdagi

sport ishlari bo'yicha vazirligi, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalari alohida o'rin tutishi ta'kidlab o'tilgan.

Shu asosda, O'zbekiston Respublikasi DJK doirasida 1992 yil "O'zbekiston-Malayziya" jamiyati tuzilgani va uning amaliy faoliyatida turli xil madaniy tadbir va uchrashuvlar o'tkazish orqali ikki mamlakat xalqlarini o'zaro yaqinlashtirishga munosib hissa qo'shayotgani keng yoritib berilgan³⁸. Ushbu jamiyatning tashabbusi bilan boshlang'ich tashkilotlarda do'stlik uchrashuvlari, Malayziya rassomlari asarlarining ko'rgazmalari, davra suhbatlari, turli anjumanlar tashkil etilmoqda.

Masalan, 1995 yil 5 sentabrda O'zbekiston Respublikasi DJK binosida Malayziya mustaqilligi e'lon qilinganligining 38 yilligiga bag'ishlangan anjuman o'tkazildi. Shu kuni kengash binosida Malayziya xalqining mustaqillik yillarida erishgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy yutuqlarini yorituvchi ko'rgazma tashkil etildi. Shuningdek, Yulduz Ismatova boshchiligidagi "Tanovar" ansamblining katta konsert dasturi namoyish qilindi³⁹.

O'zbekiston va Malayziya xalqlarining kino san'ati sohasidagi aloqalari ham rivojlanib bormoqda. Jumladan, 1997 yil bo'lib o'tgan XII xalqaro Toshkent kinofestivalida ishtirok etgan 32 ta mamlakat kino san'atining namoyandalari, olim va mutaxassislari hamda 8 ta xalqaro tashkilot vakillari orasida Malayziya kino san'ati arboblari ham munosib o'rin egalladilar. Kinofestival doirasida O'zbekiston va Malayziya kino san'ati vakillari o'rtasida o'rnatilgan yaqin aloqalar san'at sohasida turli

karoriga binoan Ўзбекистон Республикасининг Халқаро маданий-маърифий алоқалари миллий ассоциацияси (ЎЗР ХАМА) сифатида ташкил этилган эди.

³⁸ ЎЗР МДА, М-2-фонд, 1-рўйхат, 140-иш, 10-варақ.

³⁹ ЎЗР МДА, М-2-фонд, 1-рўйхат, 188-иш, 45-варақ.

xil ikki tomonlama tadbirlar o‘tkazish uchun katta imkoniyatlar yaratdi⁴⁰.

Xalqlar o‘rtasida madaniy hamkorlikni rivojlantirishda sportning ham o‘z o‘rni bor. 2003 yilda Malayziyada velosport bo‘yicha xalqaro “Tur Malayziya” va “Perlis Open-2003” musobaqalarida O‘zbekiston Respublikasi velosportchilari yurt sharafini himoya qildilar⁴¹.

2004 yilning iyun oyida Malayziyaning Ipo shahrida yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan yengil atletika bo‘yicha II Osiyo chempionatida O‘zbekiston Respublikasining Yengil atletika federatsiyasi tomonida saralab olingan 13 kishilik terma jamoasi ishtirok etdi⁴².

Xalqaro munosabatlar va hamkorlik amaliyoti tajribasidan ma’lumki, xalqaro turizm ham jahon xalqlarini ma’naviy jihatdan yuksaltirishda katta o‘rin egallaydi. Jahonning ko‘plab sayyohlari O‘zbekistonning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda bo‘lish istagini bildirmoqdalar. O‘zbekiston va Malayziya xalqlari o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, shuningdek, respublikamizdagi “O‘zintur”, “Dolares tur”, “Sayram turizm”, “ABDA Travel Co. LTD”, “Aziya trevl”, “KETS”, “Marko Polo” va boshqa sayyohlik firmalari malayzionalik sheriklar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishmoqda⁴³.

O‘zbekiston va Malayziyaga kelib-ketuvchi sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Agar 2005 yilda Malayziyadan 150 nafar

⁴⁰ Народное слово. – 1997. – 23 мая.

⁴¹ ЎзР Давлат Жисмоний тарбия ва спорт қўмитаси жорий архиви, 737-иш, 6-варак.

⁴² ЎзР Давлат Жисмоний тарбия ва спорт қўмитаси жорий архиви, 586-иш, 50-варак.

⁴³ “Ўзбектуризм” Миллий Компаниясининг жорий архиви. Ўзбекистан ва Малайзия муносабатларининг туризм соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисидаги информацион материал, 4-иш, 3 -варак.

sayyoh O‘zbekistonga kelgan bo‘lsa, O‘zbekistondan 1000 nafar sayyoh Malayziyada bo‘lgan⁴⁴.

Fan va ta’lim jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismidir. O‘zbekiston va Malayziya Fanlar akademiyalari o‘rtasida ilmiy aloqalarni rivojlantirishga oid Memorandum⁴⁵ imzolanishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining “Kibernetika” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bilan Malayziyaning ilmiy-tadqiqot instituti bilan, “Akadempribor” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi esa Malayziyaning “Sirim Berxard” standartlashtirish instituti bilan hamkorlikdagi tadqiqotlarni boshlab yubordilar⁴⁶.

1995 yil bahorida Axmad Tosir boshchiligidagi bir guruh malayziyalik olim va mutaxassislar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga tashrif buyurib, mamlakatimiz ilmiy-tadqiqot institutlari va olimlari faoliyati bilan yaqindan tanishidilar⁴⁷. Bunga javoban, 1995 yil sentabr oyida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining bir guruh olimlari Malayziyaga tajriba almashish maqsadida safar qildilar⁴⁸.

2004 yilning aprel oyida Malayziya Milliy kutubxonasining Bosh direktori Dato Zayaviyax Baba, Malayziya qo‘lyozmalar markazi direktorining o‘rinbosari Mariani S.M.Umar, Malayziya Milliy kutubxonasi tadqiqotlar bo‘limi direktorining o‘rinbosari Hoji Rosham Abdul Shukordan iborat delegatsiya O‘zbekistonga tashrif buyurdi⁴⁹. Malayziyaning “Renong Berxard” kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda

⁴⁴“Ўзбектуризм” Миллий Компаниясининг жорий архиви. Ўзбекистан ва Малайзия муносабатларининг туризм соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисидаги информацион материал, 4-иш, 4-варақ.

⁴⁵ Ўз ФА жорий архиви. 1-рўйхат, 20-варақ .

⁴⁶ ЎзР.ДМА. М-2-фонд.1-рўйхат. 188-иш. 46-варақ.

⁴⁷ ЎзР.ДМА. М-2-фонд.1-рўйхат. 140-иш. 13-варақ.

⁴⁸ ЎзР МДА. М-2-фонд. 1-рўйхат. 188-иш. 4-7 варақ.

⁴⁹ Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона жорий архиви. Ҳисоботлар. 1-иш. 1-варақ

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat universiteti qoshida biznes boshqaruvi fakultetini, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida esa Malayziya multimedia universitetining magistratura fakultetini ochishga qaror qildi⁵⁰.

Malayziyaning O‘zbekistondagi “Petronas” kompaniyasi jamoatchilik dasturi asosida o‘zbekistonlik yoshlarga oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishlari uchun homiylik vazifasini ham bajarmoqda. Shu kunga qadar I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat universitetining Toshkentdagi filialida 39 ta talaba, Malayziyadagi Petronas texnologiya universitetida esa 24 ta talaba ana shu kompaniya hisobidan ta’lim olmoqda⁵¹.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ikki mamlakat xalqlarining madaniyat, sport, turizm, fan va ta’lim sohalaridagi ko‘p qirrali hamkorlik aloqalari O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlarning mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shib kelayotganini ko‘rsatadi.

⁵⁰ ЎзР МДА. М-2-фонд. 1-рўйхат. 140-иш. 16-варақ.

⁵¹ Малайзиянинг Ўзбекистондаги «Петронас» компанияси жорий архиви. 1/2-рўйхат. – Б. 8.

III. XULOSA

Tadqiqotda bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

1. Siyosiy mustaqillikka erishgan O‘zbekiston mamlakat va jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan yangilashning strategik vazifalarini aniqlab oldi.

2. O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab tashqi siyosiy faoliyatida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga alohida e’tibor qaratdi. Chunki yangilanish va taraqqiyot yo‘liga kirgan O‘zbekiston uchun ushbu mintaqa davlatlari bosib o‘tgan rivojlanish yo‘lini o‘rganish katta ahamiyatga molik edi.

3. Malayziya o‘zining boy tarixi, madaniy-ma’naviy turmush tarzi, shuningdek zamonaviy taraqqiyot darajasi bilan O‘zbekiston uchun katta qiziqish uyg‘otayotgan mamlakatlardan biri edi. Shu asosda ikki mamlakat o‘zaro foydali hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga kirishdi va davlatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari barpo etildi.

4. O‘zbekiston va Malayziya xalqaro hamkorligi masalalarini tahlil qilish iqtisodiy soha ularning davlatlararo aloqalaridagi ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatdi.

5. Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda madaniyat sohasidagi hamkorlik alohida o‘ringa ega. Shu bois O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasida ko‘p qirrali madaniy aloqalar o‘rnatildi. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikning turli-tuman shakllari xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik va ishonchni yanada mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shdi.

6. O‘zbekiston bilan Malayziyaning fan va ta’lim sohasidagi hamkorligi xalq diplomatiyasi shakllaridan biri sifatida xalqaro munosabatlarning mustahkamlanishiga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

O‘zbekiston va Malayziya xalqaro hamkorligi masalalari tadqiq etish ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganiga qaramay, o‘z yechimini topmagan ayrim muammolar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Ular, ma’lum ma’noda, ikki mamlakatning mavjud imkoniyatlarini to‘liq ishga solishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois Magistrlik dissertasiyasida O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari surildi:

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati olib borilayotgan bir paytda ushbu sohaga mas’ul tashkilot va muassasalarning rolini oshirish talab etiladi. Buning uchun ijtimoiy va iqtisodiy yo‘nalishda yangi loyihalar ishlab chiqish, qo‘shimcha sarmoyalar kirib kelishini kuchaytirish hamda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida O‘zbekiston-Malayziya qo‘shma korxonalarini ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, ikki mamlakat sanoat subyektlari o‘rtasida iqtisodiyotning muayyan sohalari bo‘yicha o‘zaro aloqalarni kengaytirishga yordam beruvchi xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarni ko‘proq tashkil etish ham ana shu maqsadga xizmat qilgan bo‘lardi.

2. Malayziyaning O‘zbekistondagi elchixonasi vakillari o‘z hukumatlaridan kun tartibiga ushbu mamlakatda “Malayziya – O‘zbekiston” jamiyatini tuzish masalasini qo‘yishni so‘rashlari ikki mamlakat xalqlarining madaniy hamkorligini yanada kengaytirishga

xizmat qilgan bo‘lardi. Bundan tashqari, madaniyat va sport sohalaridagi hamkorlikni yanada jadallashtirish uchun ‘O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi va Malayziya sayyohlik firmalari sayyohlarni jalb etishga qaratilgan ikki mamlakat hududlaridagi tarixiy va diqqatga sazovor joylarga oid yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqishlari, O‘zbekiston va Malayziya olimpiya qo‘mitalari esa turli turnir va musobaqalarni o‘tkazish bo‘yicha maxsus dasturlar yaratishlari maqsadga muvofiq bo‘lardi.

3. O‘zbekiston bilan Malayziya o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni jadallashtirish maqsadi ikki mamlakat Fanlar akademiyalarining tabiiy va ijtimoiy yo‘nalishlardagi ilmiy-tadqiqot institutlari yangi loyihalar ishlab chiqishlarini, olimlar o‘rtasida tajriba almashinuvi, stajirovka va ilmiy safarlar tashkil qilishni hamda dolzarb masalalar bo‘yicha xalqaro ilmiy konferensiya va seminarlar o‘tkazishni taqozo etmoqda.

4. Ta’lim yo‘nalishidagi hamkorlikni kelgusida yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston va Malayziyaning tegishli vazirliklari ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidaga aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish jarayoniga yetakchilik qilishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada respublikamizning yetakchi oliy o‘quv yurtlari negizida qo‘shma o‘quv kurslari ochish hamda yosh iqtidorli professor-o‘qituvchilar Malayziyadagi obro‘li o‘quv markazlarida malaka oshirishlari uchun maxsus grantlar ajratilishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

5. O‘zbekiston va Malayziya mamlakatlarining kelgusidagi o‘zaro manfaatli hamkorligini bundan keyin ham tadqiq qilish va davom ettirish zarur. Bunda ikki davlatning siyosiy munosabatlar, iqtisodiy va

madaniy sohalardagi hamkorlikda erishgan yutuqlari, bu borada mavjud muammolar, ularning mintaqa va jahon miqyosidagi jarayonlarga munosabatlari kabi masalalarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - B. 42.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 25.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 3.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 510.
6. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. 2002 yil 29-30 avgust kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq to‘qqizinchi sessiyasida so‘zlangan nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 12.
7. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. 2002 yil 29-30 avgust kunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq to‘qqizinchi sessiyasida so‘zlangan nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 12.

8. “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasining joriy arxivi. O‘zbekistan va Malayziya munosabatlarining turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi informatsion material, 4-ish, 3 -varaq.

9. “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasining joriy arxivi. O‘zbekistan va Malayziya munosabatlarining turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi informatsion material, 4-ish, 4-varaq.

10. Malayziyaning O‘zbekistondagi «Petronas» kompaniyasi joriy arxivi. 1/2-ro‘yxat. – B. 8.

11. Kirgizboyev A. K. Mejdunarodnoye sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Azii: Avtoref. dis. ... d-ra ist. nauk. – T., 2004.

12. Kucharov CH. Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsion jarayoni muammolari: Siyosiy fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2008. – 46 s..


13. Nuriddinov E. Z. Mejdunarodnoye sotrudnichestvo Uzbekistana so stranami Yevropi v usloviyax nezavisimosti: stanovleniye, razvitiye, problemi: Avtoref. dis. ... d-ra ist. nauk. – T., 2000;

14. Kucharov CH. Ekonomicheskiye svyazi Respubliki Uzbekistan so stranami Azii (1985–1995 gg): Avtoref. dis. ...kand. ist. nauk. – T., 1997. – 27 s.;

15. Sharapova S. SH. Osnovniye problemi stanovleniya i razvitiya vneshney politiki Respubliki Uzbekistan: Avtoref. dis. ... kand. polit. nauk. – T., 1997. – 27s.;

16. Alimov A. Otsenka itogov i xoda ekonomicheskix reform vo vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti za 1995 god // Ekonomika i statistika. – 1996. – № 3–4. – S. 34–43.
17. Alimov A. O‘zbekistonda tashqi savdo // Iqtisod va hisobot. – 1997. – № 7. – B. 42–44.
18. Ziyadullayev S. K. Prognozirovaniye ekonomicheskogo razvitiya Uzbekistana v usloviyax perexoda k rinochnoy ekonomike. – T.: Uzbekistan, 1993.
19. Tursunmuxamedov I. G. Sovmestniye predpriyatiya i problemi ix razvitiya // Obshestvenniye nauki v Uzbekistane. – 1993. – №11–12. – S. 22–26;
20. Karimova G. I. Politiko-ekonomicheskiye reformi v Uzbekistane: realii i perspektivi. – T.: Uzbekiston, 1995;
21. Karimova G. I. Globalizatsiya mirovoy ekonomiki i osnovniye voprosi postepennogo vxojdeniya Uzbekistana v danniy protsess // Ekonomika i statistika. – 1996. – № 6. – S. 35–37;
22. Rasulov A., Bedrinsev A., Akilov A. Uzbekistan: vneshne-ekonomicheskaya deyatel'nost i integratsiya v mirovoye xozyaystvo. – T.: Uzbekiston, 1996;
23. Qirg‘izboyev A. K. O‘zbekiston va jahon. – T.: 1997;
24. Qirg‘izboyev A. K. O‘zbekiston-Xitoy hamkorlik yo‘lida // Davlat va huquq. – 2002. – № 3. – B. 70–73;
25. Qirg‘izboyev A. K. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. – T.: Fan, 2004; va boshq.
26. Bjezinskiy Z. Vne kontrolya. Globalniy besporyadok nakanune XXI veka // SSHA – EPI. – 1994. – №4. – S. 121–122;


27. Lubin N. Central Asia: Issues and challenges for United States policy. The new geopolitics of Central Asia and its borderlands. Ed. By Ali Banuazizi and Myran Weiner. J. 8. Touris and Co. Ltd. – I. W. Y., 1994;




Малайзия байроғи.



Малайзия герби.



Малайзия қишлоқларидан бири.



Куала-Лумпур шаҳри кўчаларида.

